“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



O‘zbekistonda yuridik xizmatning rivojlanish bosqichlari va istiqbollari

Asliddin Xushnazarov,
Adliya vazirligi mas’ul xodimi
Huquqshunos
e-mail: asliddinxushnazarov@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada mamlakatimizda yuridik xizmatning rivojlanish bosqichlari, yuridik xizmatning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda vazifa va funksiyalari tahlil qilinib, yuridik xizmat institutini yanada takomillashtirish hamda innovatsiyalar orqali sohani isloh qilishga oid taklif va xulosalar berilgan.

Калит сўзлар. yuridik xizmat, yuridik xizmat xodimi, tashkiliy-huquqiy asos, yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari “E-huquqshunos” elektron tizimi

Аннотация. В данной статье анализируются этапы развития юридической службы в нашей стране, организационно-правовые основы, задачи и функции юридической службы, а также даются предложения и выводы по дальнейшему совершенствованию института юридической службы и реформированию отрасли за счет инноваций.

Ключевые слова. юридическая служба, сотрудник юридической службы, организационно-правовая основа, центры юридического обслуживания электронная система "E-huquqshunos"

Annotation. This article analyzes the stages of development of the legal service in our country, the organizational and legal foundations, as well as the tasks and functions of the legal service, and provides proposals and conclusions on further improving the institution of the legal service and reforming the sphere through innovations.

Keywords. legal service, legal service employee, organizational and legal framework, legal service centers "E-huquqshunos" electronic system

Huquqiy demokratik davlatning eng muhim mezonlardan biri – davlat va jamiyat faoliyatida qonun ustuvorligi hamda qonuniylik prinsiplari barqarorligini ta’minlash hisoblanadi. Albatta, bu asosiy vazifani amalga oshirishda davlat organlari va

tashkilotlarining yuridik xizmati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham, davlat idoralari faoliyatini qonuniy tashkil qilinishida yuridik xizmatning joriy qilinishi hamda mazkur institutni rivojlantirib borilishi davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Xususan, O‘zbekistonda yuridik xizmat institutining tashkil etilishi va rivojlanishi bir qator bosqichlarni o‘z ichiga olib, dastlabkisi sovet davriga borib taqaladi.

Ushbu davrda mamlakatimizda davlat organlarida yuriskonsultlarning son jihatdan yetarli emasligi hamda ularning tashkilotlar ish faoliyatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsata olmaganligi sababli, yuridik xizmat xodimlarining huquqiy maqomi hamda faoliyati qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinmagan va mustahkamlanmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ijtimoiy huquqiy munosabatlar rivojlanib borishi hamda iqtisodiyotning barqarorlashuvi natijasida yuridik xizmat faoliyatini tartibga solish zarurati vujudga kela boshladi. Sobiq Ittifoq davrida yuridik xizmat faoliyatini tartibga solishga ilk urinishlar XX asrning 20-yillarida amalga oshirildi.

Yuridik xizmatning o‘sha paytdagi asosiy vazifalari huquq masalalari bo‘yicha maslahatlar berish va sudda vakillik bo‘lgan edi. Birinchisi, tashkilot ishini qonuniylikka yo‘naltirish va ma’lum huquqiy normalar buzilishining oldini olish hamda ishda tashkilot faoliyati uchun huquqiy barcha sharoitlarni ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Ikkinchisi, yuridik xizmat tomonidan turli sudlarda tashkilot nomidan sud vakilligi majburiyatlarini bajarishda ifodalangan[1].

Bu davrda Adliya xalq komissarligi tomonidan yuriskonsultlar ishiga rahbarlik qilingan bo‘lsa, keyinchalik yuriskonsultlar faoliyatini nazorat qilish, va muvofiqlashtirish prokuratura zimmasiga yuklatilgan. Biroq, bunday nazorat qonuniylik ustidan umumiy nazorat doirasida amalga oshirilganligi sababli yuridik xizmat rivoj topmagan.

Aytish joizki, ma’lum bir davr mobaynida davlat organlari va tashkilotlarning yuridik xizmati faoliyatini tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjat mavjud bo‘lmaganligi sababli har bir idora yuridik xizmat faoliyatiga oid masalalarni o‘zicha hal etgan va yuriskonsultning mustaqilligi cheklangan. Bu esa o‘z navbatida, tashkilot tomonidan hujjatlarni qabul qilishda chalkashliklar va takroriylik holatlariga yo‘l qo‘yilishiga olib kelgan.

Ilk bor yuridik xizmat faoliyati SSSR Xalq xo‘jaligi Oliy Sovetining 1925-yil 7-iyundagi 955-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Sovet Ittifoqi Xalq xo‘jaligi Oliy Sovetiga qarashli davlat korxonalari yuriskonsultlari to‘g‘risidagi nizom bilan tartibga solingan va ushbu hujjat yuristkonsullar faoliyatining asosiy majburiyatlarini belgilab bergan [2].

XX asrning 70-yillarida mamlakat iqtisodiyotini jonlantirish harakatlari munosabati bilan davlat organlari yuridik xizmatiga e’tibor berila boshlandi. Sovet Ittifoqi Ministrlar Kengashining 1972-yil 22-iyundagi 467-sonli qarori bilan Yuridik bo‘lim (byuro), bosh (katta) yuriskonsult, vazirlik, idora, korxona, tashkilot,

muassasa Kengashi mehnatkashlar deputatlari kengashining ijroiya qo‘mitasi yuriskonsulti to‘g‘risidagi umumiy nizom tasdiqlangan [3].

Mazkur hujjat asosida O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1972-yil 10-iyulda 285-son “Vazirlik, idora, mehnatkashlar deputatlari soveti ijroiya qo‘mitasi, korxona, tashkilot va muassasadagi yuridik bo‘lim (byuro), bosh (katta) yuriskonsult, yuriskonsult to‘g‘risidagi umumiy nizom haqida”gi qarori qabul qilingan [4].

Shu bilan birga, keyinchalik ham Sovet ittifoqi tomonidan yuridik xizmatlar faoliyatini har taraflama takomillashtirish va huquqiy ishlar darajasini oshirishni ta’minlashga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar qabul qilingan.

Sovet ittifoqi tugatilgandan so‘ng, O‘zbekistonda yuridik xizmat faoliyati masalalari bo‘yicha bironta normativ-huquqiy hujjat qabul qilinmagan. Davlat organlari va tashkilotlari ushbu sohalarda o‘z faoliyatini Sovet davlati so‘nggi yigirma yil ichida qabul qilgan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib borishgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng, huquqiy demokratik davlat barpo etish hamda bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonida yuridik xizmatning huquqiy maqomini mustahkamlash, uning davlat boshqaruvidagi o‘rni va funksional vazifalarini kengaytirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylana boshladi.

Xususan, bugungi kunga qadar yuridik xizmat faoliyatini tartibga solishga qaratilgan bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi PF–314-son Farmonida Adliya vazirligiga yuridik xizmat xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazishni tashkil qilish vazifasi yuklatilgan bo‘lib, mazkur davrdan boshlab, adliya organlari tomonidan davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat faoliyati muvofiqlashtirib kelinmoqda [5].

Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 2-martda 118-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organlari va korxonalaridagi yuridik xizmat to‘g‘risidagi nizom mustaqil O‘zbekiston tarixida mamlakatda yuridik xizmat faoliyati va huquqiy maqomini tartibga solishga mo‘ljallangan ilk huquqiy hujjat bo‘ldi. Mazkur hujjat bilan yuridik xizmat xodimi lavozimlarini egallash tartibi, yuridik xizmat xodimlarining vazifalari, ularning huquqi va mas’uliyati belgilab berildi [6].

Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 24-avgustdagi 182-son “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy ta’minlash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi tashkilotlar faoliyatini huquqiy jihatdan ta’minlashda huquqiy ishni yanada takomillashtirishga bag‘ishlangan muhim hujjat bo‘ldi. Ushbu

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

hukumat hujjatining qabul qilinishi davlat idoralari va tashkilotlar faoliyatida qonun ustuvorligini ta’minlash, qonun loyihalarini ishlab chiqish sifatini yaxshilash hamda modernizatsiya qilish jarayonlarida yuridik xizmatning ahamiyati va mas’uliyatini oshirishga xizmat qildi.

Shuningdek, ushbu qaror bilan davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarida yuridik xizmati hamda xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalar va tashkilotlari yuridik xizmati to‘g‘risidagi nizomlar tasdiqlanib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga mazkur organlar va tashkilotlar, shuningdek ularning yuridik xizmatlari tomonidan qaror talablariga rioya qilishi ustidan tegishli nazorat o‘rnatish vazifasi topshirildi [7].

Shu bilan birga, qaror bilan yuridik xizmatning maqomi aniq belgilanib, yuridik xizmat xodimlarining funksional vazifalarini kengaytirildi hamda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarini ushbu qaror talablariga rioya qilishi va yuridik xizmat faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha shaxsan javobgar ekanligi mustahkamlab qo‘yildi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 22-noyabrdagi 244-son “Yuridik xizmatlar xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish va ularning malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori bilan adliya organlari tomonidan yuridik xizmatlar xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish hamda malakasini oshirish tartibi, shuningdek davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari to‘g‘risidagi axborotlarning zarur darajada hisobga olinishi va tizimlashtirilishi belgilab qo‘yildi [8].

Shunga qaramasdan yuridik xizmatni tashkil etishda bir qator tashkiliy-huquqiy masalalar hal etilmaganligi bois, yuridik xizmatlarning faoliyati kutilgan samarani bermadi. Xususan, yuridik xizmatlarni tuzish tartibi, ularning shtat birliklarini aniqlash normativlari va mezonlarining mavjud emasligi turli davlat organlari va tashkilotlarida yuridik xizmatning tashkiliy-shtat tuzilmasini maqbul tarzda belgilashda imkoniyati mavjud emas edi. Ayrim vazirlik va idoralarda katta hajmdagi huquqiy ahamiyatga ega hujjatlar qabul qilinib, minglab xodimlar faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, faqat bir yoki ikki nafar yurist lavozimi mavjud bo‘lib, ayrim hududiy bo‘limlarda esa yuridik xizmat butunlay tashkil etilmagan.

Ta’kidlash o‘rinliki, yuridik xizmatlar davlat organlari va tashkilotlarning norma ijodkorligi, shartnomaviy-huquqiy hamda talabnoma-da’vo ishlarini bajarib kelgan bo‘lsada, qonunbuzilishlarning oldini olish va o‘z vaqtida tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha faoliyati talab darajasida emas edi. Bu esa ularning yetarli va ta’sirchan vakolatlarga ega emasligi bilan izohlanadi.

Ma’lumki, ba’zi rahbarlar yuridik xizmat xodimisiz ish yuritishni afzal ko‘rgan yoki yuristni o‘z boshqaruvi ostida ushlab qolishga harakat qilgan.

Bundan tashqari, yuridik xizmat xodimlarining moddiy ta’minoti darajasi, ularning himoyalanmaganligi ushbu sohada kadrlarning qo‘nimsizligi yetuk yuridik xizmat xodimini tayyorlashga monelik qilar edi. Ayniqsa, yuridik xizmat xodimlarini tashkilot rahbarining mustaqil o‘zi ishga qabul qilishi yoki ishdan bo‘shatishi tartibi ularning qonuniylikni ta’minlash borasidagi faoliyati qaysidir ma’noda cheklanishiga olib kelayotgandi.

Huquqiy demokratik davlat qurish yo‘lini tanlagan mamlakatimizda qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta’minlash asosiy tamoyil sifatida qabul qilinadi. Ushbu maqsadga erishish yo‘lida so‘nggi yillarda yurtimizda chuqur islohotlar amalga oshirilib, ular doimiy ravishda davom ettirib kelinmoqda. Prezidentimiz tomonidan jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab berilmoqda. Yuridik xizmat mazkur maqsadlarni amalga oshirishda muhim vosita bo‘lganligi sababli, sohani rivojlantirish zaruriyati yuzaga keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF–4850-son “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida davlat organlarida yuridik xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish vazifasi qo‘yildi [9].

Shu munosabat bilan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonuniylikni yanada mustahkamlash, demokratik va huquqiy islohotlarni amalga oshirishda yuridik xizmatning roli va mas’uliyatini izchil ravishda mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvarda PQ–2733-son “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-maydagi 250-son qarori qabul qilindi [10]. Ushbu hujjatlar yuridik xizmatning vakolatlarini kengaytirish va umumiy jihatdan uning roli oshirilishini ta’minlashga qaratildi [11].

Xususan, mazkur qaror bilan yuridik xizmatning mavqeyi oshirildi hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bilan bir qatorda qonuniylikni ta’minlash bo‘yicha vazifalari doirasi ham kengaytirildi, mas’uliyat va javobgarligi kuchaytirildi.

Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarida, shu jumladan, ularning hududiy tuzilmalarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan minimal me’yor va mezonlarga asosan majburiy tartibda yuridik xizmatlar tashkil etilishi belgilab berildi.

Jumladan, qarorda yuridik xizmat xodimlarining shtat birliklarini qisqartirish yoki boshqa tarkibiy bo‘linmalarga qayta taqsimlashga yo‘l qo‘yilmasligi hamda yuridik xizmat xodimlarini lavozimga tayinlash va ozod etish esa adliya organlari bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi belgilandi.

Bundan tashqari, qarorda yuridik xizmat xodimlarining davlat organi va tashkilotining huquqni qo‘llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta’minlashni tashkil etish, davlat organi

va tashkiloti tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish, davlat organi va tashkilotining qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida ularning tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish, davlat organlari va tashkiloti xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da’vo ishlarini yuritish, davlat organi va tashkilotining mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta’minlash yo‘nalishlari bo‘yicha 40 ta funksional vazifalari belgilangan.

Shu bilan birga, yuridik xizmat xodimlari uchun adliya organlari xodimlariga tenglashtirilgan tartibda martaba darajalari berish, ko‘p yillik xizmatlari uchun ustamalar to‘lash, sudgacha va sud bosqichlarida tashkilot foydasiga hal qilingan nizolar bo‘yicha mukofotlash tizimi joriy etildi.

Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan, amaliyot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuridik xizmatlarning qonuniylik va qonun ustuvorligini ta’minlash borasidagi faoliyati ularning mustaqil emasligi, rahbar xodimlarning ularga bevosita yoki bilvosita ta’siri ostida yetarlicha samara bermadi. Bu esa o‘z navbatida, davlat organlari va tashkilotlarida noqonuniy ishlarning avj olishiga imkon yarata boshladi.

Ta’kidlab o‘tish kerakki, tuman darajasidagi tashkilotlarning yuridik xizmat xodimi tomonidan qonunchilikda ularga yuklangan 39 ta funksiyalardan 30 tasi bajarilishi lozim bo‘lsa-da, biroq amaliyotda ushbu yuridik xizmat xodimining tashkilotdagi vazifasi bor-yo‘g‘i buyruqlar va shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish (asosan viza qo‘yish), zaruratga qarab sud majlislarida ishtirok etishdan iborat bo‘lib qolgan edi. Bundan tashqari, tuman (shahar) darajasidagi ayrim tashkilotlarda yuridik xizmat mavjud ham emas edi.

Shu sababli, tashkilotlardagi qonunbuzilishlar adliya bo‘limlari tomonidan joylarda o‘tkazilgan o‘rganishlardan keyingina bartaraf etib kelingan.

Masalan, 2019 – 2021-yillar davomida adliya bo‘limlari tomonidan tumanlaridagi davlat tashkilotlariga nisbatan 15 051 ta taqdimnoma kiritilgan, 2 431 ta hujjat bekor qilingan.

Bu kabi omillar davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati faoliyatini modernizatsiyalash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Shunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son Farmoni bilan davlat tashkilotlarida sifatli yuridik xizmat ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida tuman va shahar adliya bo‘limlari huzurida yuridik xizmat ko‘rsatish markazlarini tashkil etish belgilandi. Ushbu Farmon mazkur Markazlar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjati sifatida qabul qilindi [12].

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Keyinchalik, 2020-yil 17-sentabrda Hukumat tomonidan “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatini eksperiment tariqasida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Mazkur qaror doirasida Markazlar dastlab Namangan shahri, Qarshi shahri va Marhamat tumanidagi davlat tashkilotlarida “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali yuridik xizmat ko‘rsatishni boshladi [13].

O‘tkazilgan eksperiment yuridik xizmat ko‘rsatishning yangi modeli davlat organlari tomonidan tayyorlanadigan hujjatlarning qonuniyligi va sifatini ta’minlashda o‘zining ijobiy natijalarini berdi.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ-5168-son qarori bilan respublikaning barcha tuman va shaharlarida Markazlarning faoliyati yo‘lga qo‘yildi [14].

Hozirda Markazlar tomonidan respublika bo‘yicha tuman (shahar) darajasidagi 19 turdagi 21 mingdan ortiq davlat idoralariga yuridik xizmat ko‘rsatib kelinmoqda.

Shu bilan birga, yuridik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari so‘nggi paytlarda sezilarli va ijobiy o‘zgarishlar bilan mustahkamlangan holda takomillashib borayotgan bo‘lsada, huquqshunoslik yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy faoliyat va izlanishlarda ushbu huquqiy institutning tashkiliy-huquqiy asoslarining ayrim jihatlari haqida doimiy ravishda keng va chuqur tahlillar olib borilmoqda.

Jumladan, huquqshunos olim F. Otaxonov O‘zbekistonda yuridik xizmatning nazariy va huquqiy muammolarini ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilgan holda, amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan yuridik xizmat sohasini tartibga solishda mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda sud-huquq islohotlari talablariga to‘liq mos kelmayotganligini ta’kidlaydi.

Xususan, huquqshunos olimning fikricha, Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risidagi nizom tadbirkorlik subyektlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari uchun tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ular davlat organlarining e’tiboridan chetda qolayotgani haqida fikr bildiradi. Shu munosabat bilan, olim tadbirkorlik subyektlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yuridik xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishini qo‘llab-quvvatlaydi [15].

Bundan tashqari, yana bir huquqshunos olim X. Fayziyev o‘zining ilmiy izlanishlaridan kelib chiqib, yuridik xizmatlarni markazlashtirish yuqori sifatli davlat yuridik xizmatlarini ta’minlash va yuridik xizmat ko‘rsatishning yagona, shakllanib ulgurgan mexanizm sifatida ishini tashkil etilishi orqali adliya organlariga mamlakatda yagona huquqiy siyosatni samarali amalga oshirishga imkon berishi asosli deb hisoblashini ta’kidlagan [16].

Fikrimizcha, bu kabi yuridik xizmat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat organlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, qonuniylik prinsiplarini amaliyotda to‘laqonli tatbiq etish va yuridik xizmatning samaradorligini

oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishning qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishida etishda davlat organlari va tashkilotlarida sifatli hamda professional yuridik xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash va tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, davlatning iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlashda, zamon talablariga mos tarzda yuridik xizmat sohasiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, huquqiy jarayonlarni avtomatlashtirish va raqamlashtirish bo‘yicha islohotlarni jadallashtirish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda “E-huquqshunos” elektron tizimida hujjat loyihalarini shakllantirish jarayonlari meta usuli bilan avtomatlashtirilgan bo‘lib, ushbu yondashuv yuridik xizmat ko‘rsatish sifatini sezilarli darajada oshirib, ish samaradorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Biroq, tizimda sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish uchun yuridik xizmat xodimi tizim jarayonlarini muntazam ravishda kuzatib borishi, hujjatlarni qabul qilish va tekshirishda sun’iy intellektning tavsiyalarini muvofiqlashtirish vazifasini amalga oshirishi zarur hisoblanadi. Chunki hozirgi kunda sun’iy intellekt tomonidan ko‘rib chiqilgan hujjat loyihalarini qabul qilingandan so‘ng, hujjatlarda xato va kamchiliklar yoki qonunbuzilish holatlari yuzasidan javobgarlik masalasi aniq tartibga solinmagan (belgilanmagan).

Yuridik xizmat xodimlari tomonidan hujjatlarning sifati va qonuniyligini ta’minlashga qaratilgan nazoratning kuchaytirilishi, inson omili bilan avtomatlashtirilgan jarayonlarning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Ushbu yondashuv asosida kelajakda yuridik xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishda sun’iy intellekt modullarining funksional imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday integratsiya yuridik xizmatlar samaradorligini oshirish, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yish darajasini kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Гавриленко К.М., Голубев С.Н. Организация юридической работы учреждений. Опыт руководства для юрисконсультов и юристов-практиков. – М., 1927. – С.5.

2. Бюллетень финансового и хозяйственного законодательства. 1925. № 6. – С. 18.

3. Sovet Ittifoqi Ministrlar Kengashining 1972-yil 22-iyundagi 467-sonli qarori bilan Yuridik bo‘lim (byuro), bosh (katta) yuriskonsult, vazirlik, idora, korxona, tashkilot, muassasa Kengashi mehnatkashlar deputatlari kengashining ijroiya qo‘mitasi yuriskonsulti to‘g‘risidagi umumiy nizom // URL:

4. O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1972-yil 10-iyulda 285-son “Vazirlik, idora, mehnatkashlar deputatlari soveti ijroiya qo‘mitasi, korxona, tashkilot va muassasadagi yuridik bo‘lim (byuro), bosh (katta) yuriskonsult, yuriskonsult to‘g‘risidagi umumiy nizom haqida”gi qarori // URL:

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi PF–314-son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni // URL:

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 2-martda 118-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organlari va korxonalaridagi yuridik xizmat to‘g‘risidagi nizom // URL:

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 24-avgustdagi 182-son “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy ta’minlash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // URL:

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 22-noyabrdagi 244-son “Yuridik xizmatlar xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish va ularning malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori // URL:

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF–4850-son “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // URL:

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ–2733-son “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // URL: https://lex.uz/docs/-3098964

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-maydagi 250-son qarori “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi qarori // URL:

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // URL:

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-sentabrdagi 561-son “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatini eksperiment tariqasida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // URL:

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ–5168-son “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // URL:

15. Отахонов Ф.Х. Ўзбекистон Республикасида юридик хизматнинг назарий-ҳуқуқий муаммолари. Юридик фанлар доктори (Doctor of Science) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2019. – Б. 73.

16. Fayziyev X.S. Давлат бошқаруви органларида юридик хизмат тизимининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2019. – Б. 135.

17. Yuridik xizmat xodimini lavozimga tayinlash va ozod qilish masalalarini adliya organlari bilan kelishish hamda birinchi marta yuridik xizmat xodimi lavozimiga tayinlangan shaxslarning adliya organlarida stajirovkadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 3444, 2023-yil 5-iyul) // URL: